

SURXONDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI



# SURXONDARYO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

*2022- YIL YANVAR-FEVRAL (DASTLABKI MA'LUMOT)*



# Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2022- yil yanvar-fevral oyida)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2022- yilning yanvar-fevral oyida Viloyat korxonalari tomonidan 834,9 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2021- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 106,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 91,1 % ni tashkil etdi.

| B | C | D | E |
|---|---|---|---|
| 1,5 % | 91,1 % | 5,7 % | 1,8 % |
| Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | Ishlab chiqaradigan sanoat | Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash | Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish |

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da

| | 2021- yil yanvar-fevral | 2022- yil yanvar-fevral |
|---|---|---|
| B | 43,7 % | 27,1 % |
| C | 112,8 % | 111,3 % |
| D | 112,4 % | 123,9 % |
| E | 65,3 % | 109,9 % |

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

*Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning – 23,9 % ga hamda ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 11,3 % ga o‘sishi kuzatildi.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




*Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 12,1 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,5 % ini tashkil etdi.*

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda**



## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*







| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-fevral | 2022- yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Ko‘mir, ming t.** | 44,1 | 21,2 | -22,9 |
| **Neft, ming t.** | - | 14,0 | 14,0 |







| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-fevral | 2022- yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Qattiq tuz, ming t.** | 3,6 | 5,9 | 2,3 |
| **Chaqiq tosh, ming t.** | 10,3 | 12,4 | 2,1 |

## Ishlab chiqaradigan sanoat




*2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 760,5 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 91,1 % ini tashkil etdi.*

**2021- yil yanvar-fevral** 90,4 %

**2022- yil yanvar-fevral** 91,1 %

*O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 % ni (2021- yilning yanvar-fevral oylarida – 0,4 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 0,3 % (0,4 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 18,9 % (19,5 %) va quyi texnologiyalisi – 71,5 % (70,4 %)ni tashkil etdi.*



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 4,8 % (2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 92,1 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,3 % (2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 85,4 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 51,7 % (2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 111,8 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 17,8 % (2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,9 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,4 % (2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,3 %)ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

*O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*

**Dizel yoqilg'isi**




**Paxta tolasi**




**Sement**




**O'simlik yog'i (tozalangan)**




**Tuz**




**Yumshoq bug'doy va spelta uni**



Non




Saroyog‘




Makaron




Sut




Paxta chigiti




Kalava ip




*2022- yilning yanvar-fevral oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 3,2 ming tonna paxta tolasi (2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 61,0 % ga kamaygan), 6,0 ming tonna kalava ip (3,8 % ga kamaygan), 11,1 ming tonna neft bitumi (23,4 % ga ko‘paygan), 9,0 ming tonna paxta chigiti (42,8 % ga kamaygan) hamda 3,8 ming tonna boshqa guruhlarga kiritilmagan suyuq neft yoqilg‘isi (mazut) (23,6 % ga ko‘paygan) ishlab chiqarilib, yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi.*

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-fevral | 2022- yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Paxta tolasi, ming t. | 8,2 | 3,2 | -5,0 |
| Kalava ip, ming t. | 6,2 | 6,0 | -0,2 |
| Boshqa guruhlarga kiritilmagan suyuq neft yoqilg‘isi (mazut), ming t. | 3,0 | 3,8 | 0,8 |
| Yumshoq bug‘doy va spelta uni, ming t. | 19,1 | 17,4 | -1,7 |
| Sariyog‘, t. | 0,06 | 0,4 | 0,34 |
| O‘simlik yog‘i (tozalangan), ming t. | 0,6 | 0,9 | -4,9 |

## Metallurgiya sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-fevral oylarida metallurgiya sanoati ulushi 0,3 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 3,5 m. ga o‘sgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,3 % ni, fizik hajm indeksi esa, 85,4 % ni tashkil etib va ishlab chiqarish hajmi 2,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*




## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish




*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-fevral oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 5,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 102,5 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,5 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 61,3 % ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 21,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*

## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-fevral oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 19,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 87,2 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 17,8 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 1,9 % ga ko‘paygan va ishlab chiqarish hajmi 148,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-fevral oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 27,7 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,2 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 35,2 % ni va ishlab chiqarish hajmi 1,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*




## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-fevral oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 46,4 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 149,2 % ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 48,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 17,1 % ga o‘sgan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 402,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*

## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

*2021- yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 107,9 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,5 %, fizik hajm indeksi 82,9 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 29,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*



## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko‘ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 108,4 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni, fizik hajm indeksi 120,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*




## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




*2021- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 8,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 89,5 % ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 11,2 % ni, fizik hajm indeksi 114,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 93,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 83,3 % ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni, fizik hajm indeksi 86,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*



## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 47,5 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,7 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-fevral oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 123,9  % ga oshganligi kuzatildi.




### Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-fevral | 2022- yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya, mln.kVt.s** | 5,1 | 12,8 | 7,7 |
| **Issiqlik energiyasi, ming gkal** | 10,0 | 9,2 | -0,8 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 14,8 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,8 % ini) tashkil etdi.




## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-fevral | 2022- yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, *mlrd. so‘m*** | 0,7 | 0,4 | -0,3 |
| **Boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo‘qotish bo‘yicha xizmatlar, *mlrd. so‘m*** | 3,3 | 3,8 | 0,5 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar 8,6 mlrd. so‘m, oqova suvlarini yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 0,4 mlrd. so‘m shuningdek, 3,8 mlrd. so‘m boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo‘qotish bo‘yicha xizmatlar ishlab chiqarildi.

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 138,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 115,8 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 29,1 % ni tashkil etdi.*

### Oziq-ovqat mahsulotlari

| 2021- yil yanvar-fevral | 2022- yil yanvar-fevral |
| --- | --- |
| 55,0 % | 53,3 % |

### Nooziq-ovqat mahsulotlar

| 2021- yil yanvar-fevral | 2022- yil yanvar-fevral |
| --- | --- |
| 45,0 % | 46,7 % |

*Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,2 % (2021- yil yanvar-fevral oylarida 1,7 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Termiz shahri 16,7 % ni, Sho‘rch tumaniga to‘g‘ri kelib 16,1 % ni, Denov tumani 12,1 % ni tashkil etdi.*

*Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida Viloyat o‘sish sur’ati (104,4 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Muzrabot (213,8 %), Sherobod (152,5 %), Jarqo‘rg‘on (139,5 %), Uzun (127,2 %), Oltinsoy (114,9 %), Sho‘rchi (106,8 %) hamda Termiz (106,5 %) tumanlarida qayd etildi.*

## Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Termiz shahrida 16,7 % to‘g‘ri kelib shuningdek, Sho‘rchi tumaniga 16,1 %, Denov tumanida 12,2 % ni tashkil etdi.*




**229,7** mlrd. so‘m
2020- yil yanvar-fevral

**218,3** mlrd. so‘m
2021- yil yanvar-fevral

**247,5** mlrd. so‘m
2022- yil yanvar-fevral




Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste’mol mahsulotlarining ulushi

**2020-yil** — **99,5 %**

**2021- yil** — **101,8 %**

**2022- yil** — **106,5 %**

## Surxondaryo Viloyatsi hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jarqo‘rg‘on tumaniga to‘g‘ri kelib 19,4 % ni, shuningdek, Sherobod tumani 14,0 % ni, Termiz shahri esa 13,1 % ni tashkil etdi.*

### Surxondaryo Viloyati

**2020- yil**
716,5 mlrd. so‘m
*2020- yil yanvar-fevral*

**2021- yil**
734,6 mlrd. so‘m
*2021- yil yanvar-fevral*

**2022- yil**
834,9 mlrd. so‘m
*2022- yil yanvar-fevral*



**2020- yil** 102,1 %
*2020- yil yanvar-fevral*

**2021- yil** 105,3 %
*2021- yil yanvar-fevral*

**2022- yil** 106,5 %
*2022- yil yanvar-fevral*



## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Jarqo‘rg‘on (721,2 ming so‘m), Termiz shahri (589,5 so‘m), Sherobod (586,1 so‘m) hamda Termiz (560,6 ming so‘m) tumanlarida o‘rtacha Viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (307,9 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.*

| | o‘sish sur’ati | ming so‘m |
|---|---|---|
| Sho‘rchi | 110,1 | 295,8 |
| Sherobod | 110,8 | 586,1 |
| Uzun | 91,7 | 177,7 |
| Termiz | 111,8 | 560,6 |
| Sariosiyo | 101,9 | 117,2 |
| Oltinsoy | 117,7 | 68,8 |
| Muzrabot | 141,1 | 259,0 |
| Qiziriq | 149,0 | 302,7 |
| Qumqo‘rg‘on | 125,6 | 276,6 |
| Jarqo‘rg‘on | 103,3 | 721,2 |
| Denov | 81,6 | 271,9 |
| Boysun | 89,9 | 70,7 |
| Bandixon | 112,9 | 11,3 |
| Angor | 70,0 | 87,9 |
| Termiz sh. | 99,1 | 589,5 |

### Surxondaryo Viloyati

2020- yil: 275,6 ming so‘m
*2020- yil yanvar-fevral*

2021- yil: 276,7 ming so‘m
*2021- yil yanvar-fevral*

2022- yil: 307,9 ming so‘m
*2022- yil yanvar-fevral*



01 — 2020- yil: 103,1 %
*2020- yil yanvar-fevral*

02 — 2021- yil: 111,6 %
*2021- yil yanvar-fevral*

03 — 2022- yil: 104,3 %
*2022- yil yanvar-fevral*

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 91,2 ming so‘m bo‘lgani holda, Termiz shahrida – 221,6 ming so‘mni, Sho‘rchi tumanida – 185,6 ming so‘mni, Termiz tumanida – 183,2 ming so‘mni va Jarqo‘rg‘on tumanida – 123,5 ming so‘mni tashkil etdi.*

### Surxondaryo Viloyati

**2020- yil**
**88,4 ming so‘m**
*2020- yil yanvar-fevral*

**2021- yil**
**82,2 ming so‘m**
*2021- yil yanvar-fevral*

**2022- yil**
**91,2 ming so‘m**
*2022- yil yanvar-fevral*



**97,3 %**
**2020- yil**
*2020- yil yanvar-fevral*

**99,7 %**
**2021- yil**
*2021- yil yanvar-fevral*

**102,2 %**
**2022- yil**
*2022- yil yanvar-fevral*



## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 302,3 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 36,2 % ni tashkil etdi.*




### Surxondaryo viloyati

**2020- yil**
**351,7 mlrd. so‘m**
*2020- yil yanvar-fevral*

**2021- yil**
**237,0 mlrd. so‘m**
*2021- yil yanvar-fevral*

**2022- yil**
**302,3 mlrd. so‘m**
*2022- yil yanvar-fevral*



**49,1 %**
**2020- yil**
*2020- yil yanvar-fevral*

**32,3 %**
**2021- yil**
*2021- yil yanvar-fevral*

**36,2 %**
**2022- yil**
*2022- yil yanvar-fevral*

## Viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

*Bugungi kunda Viloyatda 4 216 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 843 tasi (ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar umumiy sonining 17,9 % i) Termiz shahriga, 556 tasi (11,8 %) Denov tumaniga, 352 tasi (7,5 %) Sho‘rchi tumaniga, 310 tasi (6,6 %) Termiz tumaniga va 296 tasi (6,3 %) Sariosiyo tumaniga to‘g‘ri kelmoqda.*




### Jami yangi tashkil etilgan

**2020- yil** — 154 dona

**2021- yil** — 208 dona

**2022- yil** — 172 dona



### Jami faoliyat yuritayotgan

**2020- yil** — 2 779 dona

**2021- yil** — 4 216 dona

**2022- yil** — 4 709 dona